8.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodim o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.3. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

8.6. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 9. TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI

«TA'MINOTCHI »
«Termiz neft bazasi» M.Ch.J.
Toshkent sh "UZSANOATKURILIShBANK" ATB
MFO 00432 STIR 200473847
X/R 22604000400556749701
Directori o'rinbosari:
Bosh xisobchi: ____________
Ichki sotish bo'limi: ____________
Xuquqshunos: ____________
M. O'.

«ISTE'MOLCHI»
Oltinsoy tuman
Obodonlashtirish Boshkarmasi
ХККМ Тошкент Шаҳри
Bank H/R 100022860222017011503110001
Bank MFO:00014 STIR: 205959015
Korxona raxbari: Sh.Muminov
M. O'.

2022 yil 25 yanvar dagi
OQX/2 sonli shartnomaga ilova

### S P YE S I F I K A S I YA

| Neft mahsulotining nomi, | Dav. STTSh | O'lchov birligi | Narxi | Yillik miqdori | Etkazib berisi summasi | QQS | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| AI-80 | | tn. | | | | | |
| AI-91 | | tn. | | | | | |
| AI-92 | | tn. | | | | | |
| AI-95 | | tn. | | | | | |
| D/YO | | tn | 9815 | 5000 | | | 49075000 |
| D/YO EKO | | tn. | | | | | |

Izoh: neft mahsulotlari narxlari birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgaradi.

«Etkazib beruvchi» ____________ M. O'.

«Iste'molchi» ____________ M. O'.

Boshqa korxonalariga neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

# OQX/2 sonli SH A R T N O M A

2022 yil 25-yanvar **Denov tumani**

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. Oltinsoy tuman nomidan Ishonchnoma № 12-147 27.12.2021 y. asosida faoliyati yurituvchi filial boshlig'i I.Shukurov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi Obodonlashtirish Boshkarmasi nomidan nizomiga asosida faoliyat yurituvchi Sh.Muminov ikkinchi tomondan, ushbu sharnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish,«Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

## 2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi QQS bilan 49075000 so'mni tashkil
Шартнома ҳ/ҳ сони суммаси 6401087 сум.

*2.2.Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Etkazib beruvchi» tomonidan ularni neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan (avtobenzin va dizel yonilg'isi bo'yicha yakuniy iste'molchiga sotilganda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i hisobga olinmagan holda) shakllanadi*

2.3.«Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishlihajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4.Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Etkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. YeTKAZIB BERISh TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neftь maxsulotlarini shuningdek «Iste'molchi»tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3.Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4.Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotsisternalar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etkazib beruvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Etkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

## 4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISh TARTIBI

4.1. Neftь mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish, "Neftь, gaz kondentsanti va neftь mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, tashish, berish va hisobga olish bo'yicha YO'RIQNOMA"ga rioya qilgan holda qabul qiladi hamda shu va boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida faoliyatini amalga oshiradi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

## 5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

## 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neftь mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'lik qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neftь mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik havfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va havfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

6.7.«Iste'molchi», «Etkazib beruvchi» tomonidan qabul qilib olingan neft mahsulotlarining sifati buzmagan holda sotish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6.8.«Etkazib beruvchi» tomonidan «Istemolchi»ga yetkazib berilgan neft mahsulotlarining sifatini nazorat qilish maqsadida ikki tomonlama kelishilgan holda sotilayotgan neft mahsulotlaridan namunalar olish, «Etkazib beruvchi» labaratoriyasida sifat tahlillarini o'tkazish va agarda mahsulot sifatiga e'tirozlar bo'lgan taqdirda olingan arbitraj namuna tahlili boshqa mustaqil labaratoriyalarida o'tkazish, shuningdek «Iste'molchi» tomonidan sifat buzilish holatlari aniqlangan taqdirda tegishli tashkilotlarni habardor qiladi va neft mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnomani qonunda belgilangan tartibda bekor qiladi.

## 7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## 8. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ***
**к договору (контракту) от 25.01.2022 г. № OQX/2**
**между "Термиз Нефтбаза" МЧЖ и Олтинсой туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 49075000,00**

Глава 110

Казначейский лицевой счёт 100022860222017011503110001

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---|---|---|---|---|
| | 4252500 | | | |
| Январь | 49 075 000,00 | | | 49 075 000,00 |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Всего за год** | **49 075 000,00** | | | **49 075 000,00** |

Всего 49075000,00 сум Сорок девять миллионов семьдесят пять тысяч сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 49075000,00 сум или 100,00%*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в Январь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _______% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика ____________ Муминов Шавкат Мухаммадиевич
(подпись) Ф.И.О.

М.П.

Главный бухгалтер заказчика ____________ Бутаярова Кизлархон Мордаевна
(подпись) Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения ____________
(подпись)

Получил работник заказчика ____________
(подпись)

_______________ 20___г.

«___» ________________20___г.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ SHAHAR HOKIMLIGI

# LITSENZIYA

AA № 0459

Mazkur litsenziya bilan "TERMIZ NEFT BAZASI"
(litsenziya egasining to'liq nomi)

МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИГА
(faoliyatning ruxsat berilgan turi)

УЛГУРЖИ САВДО

ФАОЛИЯТИ ni amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Litsenziya egasining joylashgan joyi (pochta manzili): ТЕРМИЗ ШАҲАР
С.ТЕРМИЗИЙ КЎЧАСИ 5-УЙ

Soliq to'lovchi litsenziya egasining identifikatsiya raqami: 200473847

Litsenziya berilgan sana: 2018 ЙИЛ 17-МАРТ

Litsenziyaning amal qilish muddati cheklanmagan.

Reyestr bo'yicha tartib raqami 1/459

Vakolatli shaxs:

Г.ЭЛАМАНОВ
(F.I.O.)

(imzo)

OLTINSOY FILIALI

039

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"TERMIZ NEFT BAZASI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyekining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan noldagi to'liq nomi)

"TERMIZ NEFT BAZASI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.02.2007 057 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 200473847

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, S.Termiziy ko'chasi 5-uy,

Guvohnoma: Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, YAGONA DARCHA MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

YAGONA DAI'CHA MARKAZI

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING FARMOYISHI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko'chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2022 - yil 20 - yanvar 5-8-108-F/22 Oltinsoy tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi ijrosini ta'minlash maqsadida**

1. Tuman moliya bo'limi (J.Jo'raev)ga tuman hokimligining 2022 - yilgi zahira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 - yil 19 - fevraldagi "Toshqin, sel, qor ko'chishlari va ko'chki xodisalari bilan bog'liq Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-585-son qarori talablaridan kelib chiqib, 2022 - yil davomida tumandagi aholi xo'jaliklarini va ijtimoiy soha ob'ektlarini sel oqimlari va toshqin suvlardan ximoya qilish va tumandagi maxallalarga xujaliklararo ichki yullarda toshlash ishlarini olib borishda talab qilinadigan dizel yoqilg'isi xamda sement olish uchun va axoli turmush tarzini yaxshilash maqsadida temir beton tayanch (stolba) olish uchun 200 000 000 (Ikki yuz million) so'm mablag' ajratish vazifasi yuklatilsin.

2. Tuman Moliya bo'limi (J.Jo'raev) belgilangan tartibda tuman mahalliy byudjetiga o'zgartirishlar kiritsin.

3. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (Q.Turdiev) belgilangan tartibda kassa to'lovlarini amalga oshirsin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Mo'minov)larga ushbu mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari I.Babakulov zimmasiga yuklatilsin.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: [illegible]

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

№50

1. Loyihaning turi; Shartnoma

2. Loyihaning nomi;**Xo'jalik shartnomasi.**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot nomi;**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Termez Neft Bazasi MChJ bilan neft mahsulotlari uchun 49075000 so'mga tuzilgan.25.01.2022 yil kiritilgan.**

4. Loyiha bo‘yicha takliflar; Loyihani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik va Iqtisodiy Kodeksiga to‘liq rioya etilgan, tegishli moddalar to‘g‘ri qo‘llangan

## X U L O S A

Shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Oltinsoy tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti** **L.Xasanova**

25.01.2022 yil